



UDK: 801.85:97.183

Sharifa NABIYEVA,

Dotsent, PhD, Turon universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: sharifa.nabiyeva@mail.ru

Nargiza SHAROFIDDINOVA,

Talaba, Turon universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: nargiza01515@gmail.com

PhD N.Madalov taqrizi asosida

INGLIZ ADABIYOTINING V.VULF ASARLARI MISOLIDA MODERNIZM DAVRI VA MENTAL FAZOLARNING LISONIY QURILISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada modernizm adabiyotining yirik vakili Virjiniya Vulfning "Missis Dellouey" romani misolida mental fazolar nazaryasining lisoniy in'ikosi tadqiq etiladi. Asarda "ong oqimi" va subyektiv individual vaqt tushunchalari kognitiv lingvistika hamda konseptual integratsiya prizmasi orqali tahlil qilingan. Tadqiqot davomida matndagi sensor triggerlar va fazo quruvchi lisoniy vositalarning (space-builders) matn osti ma'nolarini va qahramonlar ruhiyatini ochib berishdagi kognitiv mexanizmlari hamda lingvopoetik xususiyatlarini yoritadi.

Kalit so'zlar: Kognitiv lingvistika, mental fazolar nazaryasi, Modernizm, ong oqimi, lisoniy in'ikos, fazo quruvchi, Virjiniya Vulf, kognitiv stilistik tahlil, Jil Fokonye.

МОДЕРНИЗМ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ И ЯЗЫКОВОЕ КОНСТРУИРОВАНИЕ МЕНТАЛЬНЫХ ПРОСТРАНСТВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ВИРДЖИНИИ ВУЛФ

Аннотация

В данной статье систематически исследуется лингвистическая репрезентация теории ментальных пространств Ж. Фоконье на примере модернистского романа Вирджинии Вулф "Миссис Дэллоуэй". В рамках поэтики модернизма понятия "потока сознания", субъективного психологического времени и внутреннего монолога подробно анализируются через призму когнитивной лингвистики и концептуальной интеграции. Особое внимание уделяется изучению того, как сенсорные триггеры и языковые маркеры (space – builders функционируют в качестве когнитивных механизмов, раскрывающих подтекстовые смыслы и реконструирующих многомерный внутренний мир персонажей.

Ключевые слова: Когнитивная лингвистика, теория ментальных пространств, модернизм, поток сознания, языковая репрезентация, построители пространства, Вирджиния Вулф, когнитивно – стилистический анализ, Жиль Фоконье.

MODERNISM IN ENGLISH LITERATURE AND THE LINGUISTIC CONSTRUCTION OF MENTAL SPACES IN VIRGINIA WOOLF'S WORKS

Annotation

This article systemically examines the linguistic representation of Mental Spaces theory in Virginia Woolf's modernist masterpiece "Mrs. Dalloway" "Within the structural framework of Modernist literature, the complex concepts of stream of consciousness, subjective psychological time and inner monologue are meticulously analyzed through the lens of cognitive linguistics and conceptual blending. The study focuses on exploring how sensory triggers and language space – builders function as cognitive mechanisms to reveal subtextual meanings and reconstruct the multilayered inner worlds of the literary characters

Key words: Cognitive linguistics, mental spaces theory modernism, stream of consciousness, linguistic representation, space - builders, Virginia Woolf, cognitive stylistics, Gilles Fauconnier.

Kirish. Ushbu tadqiqot kognitiv tilshunoslikning taniqli namoyondasi Jil Fokonye tomonida asos solingan mental fazolar nazaryasiga tayanadi. Tilshunoslikda kognitiv yo'nalishning shakllanishi adabiy matnlarni yangicha talqin qilish imkonini berdi. XX asr boshlarida ingliz adabiyotida sodir bo'lgan modernistik burilish inson ongini tasvirlashning mutlaqo yangi usullarini talab qildi. An'anaviy realizm voqealarni tashqi tomondan, xronologik tartibda tasvirlagan bo'lsa, modernizm e'tiborni ichki olamga - subyektiv reallikka ya'ni inson ichki dunyosining murakkabligini birinchi o'ringa olib chiqdi. Ingliz adabiyoti matnlari shunchaki estetik zavq manbayi emas, balki M.Tyornerni ta'kidlaganidek, inson ongi voqelikni qanday shakllantirishini ko'rsatuvchi eng oliy kognitiv vositadir[6].

Ushbu tadqiqotning maqsadi V.Vulf prozasidagi mental fazolarning qurilish mexanizmlarini lisoniy jihatdan aniqlashdir. Tadqiqot obyekti sifatida "Mrs. Dalloway" romani tanlangan bo'lib, unda qahramon subyektivligining mental fazolar orqali ifodalanishi tahlil qilinadi. Bu ish modernizm adabiyotini kognitiv poetika tamoyillari asosida o'rganishga hissa qo'shadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mental fazolar nazaryasi G.Fauconnier tomonidan asos solingan bo'lsa, keyinchalik M.Turner bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan "Kognitiv qorishuv" (Conceptual blending) konseptsiyasi orqali yanada takomillashti[6].

Ushbu nazariyaning adabiy matnlarga tatbiqi P.Stockwell tomonidan kognitiv poetika doirasida chuqur tadqiq etilgan. Stokuellning fikricha, o'quvchi matn mutolaasi

jarayonida muallif tomonidan berilgan lisoniy signallar asosida o'z ongida dinamik mental dunyolarni barpo etadi[5].

Shuningdek, E. Semino kabi tadqiqotchilar matndagi voqelik va qahramonning subyektiv idroki o'rtasidagi munosabatni aynan mental fazolar kesishmasida o'rganishgan[4].

Rus tilshunosligida ham kognitiv stilistika va konsepsiyalar bo'yicha juda kuchli maktab mavjud. Ular ko'pincha "mental fazo" atamasini "kognitiv model" yoki "konseptual olam manzarasi" bilan bog'lab o'rganishadi. E.S. Kubryakova: Rus kognitiv tilshunosligining asoschisi. U matnni "inson ongi va dunyoni anglash jarayonining in'ikosi" deb ta'riflagan.

Rus kognitiv tilshunosligida matnning kognitiv strukturasi masalasi E.S Kubryakova va L.G. Babenko kabi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, L.G. Babenko badiiy matnni muallifning individual – mualliflik dunyo manzarasi sifatida baholab, undagi lisoniy birliklar kognitiv – semantik fazolarni shakllantirishini ta'kidlaydi. Bu qarashlar G. Fauconniering mental fazolar nazaryasini sharq va g'arb tilshunosligi tutashgan nuqtada yanada boyitadi. Virjiniya Vulf o'zining "Modern Fiction" essesinde ta'kidlaganidek, inson ongi "shaffof convert" yoki "nurli g'ilof" (luminous halo) kabidir. Vulf o'zining "Zamonaviy nasi" essesinde an'anaviy yozuvchilarga e'tiroz sifatida ishlatgan. Vulfning nuqtai nazaricha, hayot – bu tartibli voqealar tizimi emas, balki bizning ongimizga tinmay urilayotgan son - sanoqsiz taassurotlar oqimidir. Vulf yozadi: "Hayot – bu ketma-ket joylashgan aravacha chiroqlari emas, hayot - bu ongimizni boshidan oxirigicha o'rab turgan nurli g'ilof (luminous halo), shaffof yarim pardadir"[1].

An'anaviy qarash: Yozuvchi voqealarni tashqaridan kuzatadi (U uylandi, u urushga ketdi, u vafot etdi). Bu – "aravacha chiroqlari", ya'ni mantiqiy ketma – ketlik.

Vulfning qarashi (Halo): Inson ongi tashqi olamdan kelayotgan har bir narsani (tovush, rang, hid, xotira) bir vaqtning o'zida qabul qiladi. Bizning ongimiz shaffof bir g'ilofga o'xshab, hamma narsani o'ziga yutadi va ularni his – tuyg'u bilan qorishtiradi. Virjiniya Vulfning "luminous halo" (nurli g'ilof) konsepsiyasi inson ongi va tashqi olam o'rtasidagi chegara qanchalik nozik ekanligini ko'rsatadi. Kognitiv nuqtai nazardan, ushbu "g'ilof" qahramonning barcha mental fazolarini birlashtirib turuvchi yagona kognitiv maydon vazifasini o'taydi[2].

Tilshunoslikda kognitiv yo'nalishning shakllanishi adabiy matnlarni yangicha talqin qilish imkonini berdi. Xususan, Jil Fokonye tomonidan ishlab chiqilgan Mental fazolar nazaryasi matnini anglash jarayonida inson ongida hosil bo'ladigan vaqinchalik kognitiv tuzilmalarni o'rganadi. Fokonye fikricha, muloqot va matn mutolaasi davomida biz "Base Space (tayanch fazo dan turib, turli "Input Spaces" (kirish fazolari)ni quramiz. Bu nazariya modernistik matnlardagi vaqt va makonning keskin almashinishini tushuntirishda eng samarali metodologik vositadir. Virjiniya Vulf uslubining o'ziga xosligi: Vulfning "ong oqimi" uslubini kognitiv nuqtai nazardan tushunamiz. Virjiniya Vulf prozasida til shunchaki voqelikni bayon qilmaydi, balki qahramonning mental dunyosini "quradi". Uning "Mrs. Dalloway" romani bu borada kognitiv tahlil uchun eng boy materialdir. Vulf matnlarida bir vaqtning o'zida bir nechta mental fazolar - hozirgi lahza, o'tmish xotiralari va xayoliy ehtimollar parallel ravishda mavjud bo'ladi. Bu holat o'quvchidan yuqori kognitiv faollikni talab qiladi, chunki muallif fazolararo o'tishda an'anaviy lisoniy ko'priklar (masalan, "u esladi", "o'shanda shunday bo'lgan edi")ni kamaytirib, ularni "space – builders" (fazo quruvchi markerlar) bilan almashtiradi[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda kognitiv – diskursiv tahlil metodi asosiy o'rin tutadi.

Tahlil va natijalar. Fazo quruvchi elementlar tahlili: Matndagi "In 1904 ...", "In his mind...", "If he were ..." kabi iboralarning yangi kognitiv fazo ochishdagi roli. Tadqiqotda Virjiniya Vulf matnida yangi kognitiv hududlarni ochuvchi va ularni boshqaruvchi lisoniy signallarni (lisoniy triggerlarni) aniqlash markaziy o'rinni egallaydi. J.Fokonye nazaryasiga ko'ra, fazo quruvchilar (space-builders) til tizimidagi vaqt, makon va gipotetik munosabatlarni ifodalovchi iboralardir. Romanda Klarissa Delloueyning hozirgi London realligidan (gumgum tovushlari soatning, ko'cha manzaralari) uning o'tmishdagi (Bortom xotiralari yoki ichki xayoliy dunyosiga o'tishi lingvistik operatorlar orqali amalga oshiriladi. Metod doirasida matndagi "In Bourton...", "She remembered...", "If Peter were here..." kabi vaqt va modal ko'rsatgichlar ajratib olinadi va ularning o'quvchi ongida yangi diskursiv fazolarni qanday faollashtirishi bosqichma-bosqich tahlil qilinadi. Bu tahlil yozuvchining xronologik vaqt tushunchasini psixologik vaqt kognitiv fazosiga qanday aylantirganini ko'rsatib beradi[4].

Xaritalash: Reallik fazosi bilan qahramonning ichki (xayoliy) fazosi o'rtasidagi bog'liqlik. Ushbu metod matnda parallel ravishda mavjud bo'lgan turli mental fazolar o'rtasidagi tarkibiy elementlarning o'zaro mos kelishi va axborot almashuvini jarayonini (proyeksani) o'rganishga qaratilgan. Vulf ijodida tayanch real fazo (base space) bilan qahramonlarning subyektiv xotira yoki prognoz fazolari o'rtasida uzluksiz kognitiv bog'liqlik mavjud. Masalan, Londondagi Big Ben soatining bong urishi (real makon) qahramon ongida yoshlik davridagi hayotiy ogohlantirishlarga (xotira fazosiga) kognitiv ko'priklar vazifasini o'taydi. Xaritalash metodi yordamida ushbu ikki alohida fazoning qaysi nuqtalarda to'qnashishi va qanday qilib umumiy bir "gibrid" ma'noni (blend) hosil qilishi elementma – element tekshiriladi. Natijada, elementlararo simmetriya va asardagi ko'p qatlamli simvolizmning lingvistik arxitekturasi aniqlanadi[6].

Kognitiv – stilistik interpretatsiya. Ushbu yondashuv adabiyotshunoslikning stilistik tahlili va kognitiv tilshunoslik qonunyatlarini birlashtirib, Vulf asaridagi til figuralarini inson ongi faoliyati kontekstida talqin qiladi. An'anaviy stilistikadagi metafora, antiteza yoki elliptik gaplar kabi badiiy vositalar bu yerda shunchaki bezak emas, balki qahramonning ruhiy olami va kognitiv tuzilmasini shakllantiruvchi vosita sifatida ko'rib chiqiladi. Metod orqali "ong oqimi" uslubida punktuatsiyaning buzilishi, gaplarning uzuqligi yoki assotsiativ bog'lanishlar kognitiv cheklanishlar va emotsional yuksalishlar sifatida izohlanadi. Bu metod asar matnining chuqur qatlamlarida yashiringan muallif strategiyasini hamda qahramonlarning emotsional holatlarini lisoniy shakllar (masalan erkin ko'chirma gaplar) orqali obyektiv va aniq ochib berishga xizmat qiladi.

Modernistik matnlarda mental fazolar quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

What a lark! What a plunge! For so it had always seemed to her, when, with a little squeak of the hinges, which she could hear now, she had burst open the French windows and plunged at Bourton into the open air[7].

Qanday sho'xlik! Qanday sho'ng'ish! Zero, hozirgina u eshitgan eshik ilgaklarining o'sha g'ichirlashi bilan, u Burtondagi ayvon eshiklarini lang ochib, ochiq havoga sho'ng'igan damlarida unga doim shunday tuyulardi.

Vaqt fazolari: Qahramon hozirgi zamonda turib, birdan bolaligiga qaytishi mumkin. Bunda til grammatikasi emas, balki kognitiv "ko'priklar" muhim rol o'ynaydi.

Gipotetik fazolar: Qahramonning “agar bunday bo‘lganida...” degan o‘ylari alohida mental dunyo sifatida shakllanadi.

Natijada modernist yozuvchilar o‘quvchini bir vaqtning o‘zida bir necha mental fazoda yashashga majbur qiladi. Masalan, V. Vulfning “Missis Dellouey” asarida ko‘cha shovqini va qahramonning 20 - yil oldingi xotirasi parallel fazolardir.

Vaqt o‘zgarishi fazolaridan: mental fazo turini oladigan bo‘lsak, misol Klara Dellouey London ko‘chasida yurib borar ekan, eshikning g‘ichirlagan tovushini eshitadi.

Fazo A (real vaqt): London, iyun tongi, ko‘chadagi shovqin. Bu yerda space – builder (fazo quruvchi): “The squeak of the hinges” (Ilgaklarning g‘ichirlashi).

Fazo B (xotira fazosi): Bourton, 18 yoshli Klaraning hayoti, o‘tmishdagi tuyg‘ular[8].

Kognitiv natija: Vulf matnida o‘quvchi bir vaqtning o‘zida ham 50 yoshli, ham 18 yoshli Klara bilan muloqotda bo‘ladi. Bu esa “Mental blending” (fazolar qorishuvi) effektini beradi. Va bu lingvistikada double - scope integration ya‘ni Klara London ko‘chasida ketayotib bir vaqtning o‘zida ham

hozirgi gullarni ko‘radi, ham yoshligidagi bog‘ni tasavvur qiladi.

Mental fazolar nazaryasi shuni ko‘rsatadiki, modernizm “matn realligi” tushunchasi nisbiydir. Maqolada shu isbotlandiki, modernistic asarlarni tushunish uchun o‘quvchi nafaqat so‘zlarni, balki muallif qurgan kognitiv tarmoqlarni ham “dekodlash” kerak. Vulf an‘anaviy “he thought that ...” kabi kirish so‘zlardan voz kechib, o‘quvchini to‘g‘ridan – to‘g‘ri qahramonning mental fazosiga “irg‘itadi”. Bu esa albatta matnning kognitiv yuklamasini va estetik ta‘sirini oshiradi[3].

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo‘lsak tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, V.Vulf matnida grammatik o‘tmish zamon doim ham o‘tgan voqeani anglatmaydi, u ko‘pincha hozirgi lahzada faollashgan mental fazoni bildiradi. Ilmiy yangilik mental fazolar nazaryasini qo‘llash orqali Vulf uslubidagi “tushunarsizlik” aslida inson tafakkurining tabiiy aksi ekanligi isbotlandi. Ushbu tahliliy misol shuni isbotlaydiki, Vulf prozasida lisoniy birliklar nafaqat axborot berish, balki o‘quvchi ongida turli xronologik qatlamlarga ega bo‘lgan mental fazolarni bir - biriga bog‘lash vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR

1. Fauconnier G. Mental Spaces: Aspects of Meaning Construction in Natural Language. Cambridge University Press. 1994.
2. Gavins J., Steen G. (Eds.). Cognitive Poetics in Practice. Routledge.
3. Lakoff G. Women, Fire, and Dangerous Things. University of Chicago Press. 2003.
4. Semino E. Culpeper J. (Eds.). Cognitive Stylistics: Language and Cognition in Text Analysis. John Benjamins Publishing. 2002.
5. Stockwell P. Cognitive Poetics: An Introduction. Routledge. 2002.
6. Turner M. The Literary Mind: The Origins of Thought and Language Oxford University Press. 1996.
7. Werth P. Text Worlds: Representing Conceptual Space in Discourse. Longman. 1999.
8. Woolf V. Mrs. Dalloway. Hogarth Press. 1925.